




Aholini yangi va zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlash maqsadida Respublikamizda keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan qurilish ishlari ushbu yo'nalishdagi aholi talabotini to'laqonli qondirishga qaratilgan.

Tumanimizda ham shu kungacha qurilgan yangi uy-joylar aholiga uzoq muddatli kreditlar asosida berilayotir. Chashma, Navobod va Devayron mahallalarida qad rostlagan mana shunday uylar o'z egalariga topshirildi.

 Aytish lozimki, ushbu sohada xususiy sektor vakillari tashabbus ko'rsatishayotir. Sohibkor mahallasi, "Ozod" shirkat xo'jaligi ombori hududiga qurilayotgan yangi uy-joylar ham tadbirkor tomonidan amalga oshirilmoqda.

"Xonguzari Mirzobek" MChJ rahbari, yosh tadbirkor Manuchehr Mirzobekovning so'zlariga mazkur xizmat xonadonlari ham fuqarolarga yigirma yil muddatga kreditga beriladi. Sohibkor hududiga ayni kunda beshta shunday bir va ikki qavatli uylar qurilmoqda.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-08-27 17:16:16